

## Rossiya Imperiyasi Tomonidan Qo‘qon Xonligining Bosib Olinishi Sabablari Va Oqibatlari

**Baxtiyorov Behruz Bobirovich**

Buxoro davlat universiteti Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining sharqqa tomon amalga oshirgan ilk harbiy harakatlaridan ko‘zlangan strategik va iqtisodiy maqsadlari, shuningdek XIX asrning 2 yarmida Qo‘qon xonligining siyosiy, ijtimoiy holati va chet-ellik bosqinchilar tomonidan egallanishi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mustamlakachilik siyosati, imperiya, qozikalon, “qo‘shib olinish”, dodhoh, polkovnik, general, g‘azovot, lashkarboshi.

Jahonning yetakchi davlatlariga aylangan ikki imperiya Rossiya va Buyuk Britaniya bir-biridan xavfsirash tufayli, ya‘ni bir tomon O‘rta Osiyo hududini ikkinchisiga qaraganda oldinroq qo‘lga kiritishi mumkinligidan cho‘chib, ayni bir vaqtning o‘zida o‘z harakatlarini boshlab yuborishdilar.

Rossiya imperiyaning O‘rta Osiyoni egallashdan asosiy maqsadi bu - birinchidan O‘rta Osiyoning qulay strategik mintaqada joylashganligi, ikkinchidan xomashyoga boyligi, uchinchidan o‘z tovarlarini sotish uchun undan bozor sifatida foydalanish edi.

Rossiya imperiyasi bosqini sabablarini tarixchi X.Sodiqov o‘zining 1973 yilda yozilgan “Политика административное устройство Туркестанского генерал-губернаторства (1867 1917)” nomli kitobida quyidagicha izohlaydi: “Imperiya ma‘muriyati «mahalliy aholini o‘z davlatini barpo etish va uni boshqarish tajribasiga ega emas» degan bahona bilan mustamlakachilik siyosatini olib bordilar.

S.Ponyatovskiy o‘zining “Доходность хлопководства в Туркестане и Северной Америке” nomli kitobida Turkistonning Rossiya uchun bo‘lgan iqtisodiy ahamiyati ostida to‘xtab shunday degan edi: «Turkiston haqiqatdan qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish borasidagi imkoniyatlari jihatdan Shimoliy Amerikaning paxta ekinidagi mintaqalariga nisbatan boyroq mamlakat»[1]. Bu fikrdan ko‘rinib turibdiki, Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining yana bir sababi bu - bosib olingan o‘lkada paxtachilikni rivojlantirish yo‘li bilan AQSH ga bo‘lgan qaramlikdan qutilish edi. Katta miqdordagi paxta tolasini Amerikadan sotib olish va uni tashib keltirish tobora keskinlashib borayotgan xalqaro vaziyatda Rossiya to‘qimachilik sanoati uchun tez rivojlanish imkonini bermas edi.

Paxtachilik dastavval Farg‘ona vodiysida keng rivojlangan bo‘lsa, asta sekin Turkistonning boshqa viloyatlarida ham qishloq xo‘jalik ekinlarining asosiy sohasiga aylana boshladi.

P.Lyashenkoning “История народного хозяйство СССР” nomli kitobida yozilishicha, bosqindan so‘ng har yili o‘rta hisobda Turkistondan olib ketilayotgan mahsulotlar 259.000.000 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 213.500.000 so‘mni paxta tashkil qilardi[2].

N. Xalfin o‘zining “Присоединение Средней Азии к России (60–90-е годы XIX в.)” nomli asarida vozishicha, Qo‘qon xonligining XIX asming 40- 45 yillardayoq bosib olingan ayrim hududlari ular tomonidan Rossiya voqeligining ajralmas qismlaridan biri bo‘lib qolgan qandaydir mavjud narsa deb qaralar ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlari va ulardan darhol foyda chiqarib olish imkoniyatlari o‘rganilardi.

N.Xalfin "Политика Россия в Средней Азии (1857 - 1868)" nomli asarida bu haqida: "1870 yilda Tentaksoy atroflarida oltin topilib, bu yerda 13 avgustdan boshlab to 10 dekabrgacha anchagina oltin qazildi. Rus sanoatchilari, Slovev, Stepanov, Benardaki kabi kuchli firma egalari ham o'lkaga ko'plab oltin qidiruvchilarni yubora boshladilar", – deb yozadi[3]. Rus sanoatchilari Toshkent atrofidagi rangli metall konlari, qo'rg'oshin, glauber tuzi, selitra, toshko'mir, neft konlari ham qiziqтира boshladi.

Imperiyaning maqsadlarini xaloskorlik deb niqoblash orqasida esa, amalda uning haqiqiy niyatlariga mos keladigan uchta narsa: mintaqani bosib olish, mustamlakaga aylantirish va rivojlantirish hamda yaqin kelajakda "yangi rus Turkistoni" ni tashkil etish rejasi yashiringan edi. Shunday vaziyatda imperiya qo'shinlari Qo'qon chegaralariga yaqinlashib, o'zlarining g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun harbiy yurish boshladilar. O'sha davrga oid tadqiqotlarda O'rta Osiyo yerlari «qo'shib olinishi» ning («bosib olinishi» atamasi tadqiqotchilar lug'at boyligida mutlaqo uchramaydigan bo'lib qoldi) iqtisodiy, siyosiy, madaniy oqibatlariga taalluqli umumiy qarash, yagona nuqtai nazarni uchratmaysiz. O'rta Osiyolik tarixchilarning «qo'shib olish» mavzusiga qiziqishining ortib borayotganligini V.Y.Nepomninning maqolasi ham tasdiqlaydi. Muallif unda go'yo inkor etib bo'lmaydigan dalillarga asoslanib, O'rta Osiyoning Rossiya tarkibiga kiritilishining ob'ektiv jihatdan progressiv ahamiyatga ega bo'lganligini isbotlashga urinadi. «O'zbekistan SSR tarixi»ning ikkinchi bobi (2-t., II kitob, 1956) ham shu muallif qalamiga mansub bo'lib, «qo'shib olinishi» muammosiga bag'ishlangan. V.Y. Nepomnin O'rta Osiyoning nisbatan tez istilo etilishi sababini, bu yerdagi davlatlarning iqtisodiy va siyosiy jihatdan qo'liq, aholining ko'pi passiv kuzatuvchi bo'lib qolganligi, mahalliy savdogarlarning ochiqchasiga va yashirin qo'llab-quvvatlashi va harbiy ishning nihoyatda ibtidoiy holatda qolib ketganligi bilan izohlaydi.

Xuddi shu davrda tarixchilar O'rta Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalarining «sarchashmalari» va bu do'stlikning muntazam ravishda mustahkamlanib borayotgani to'g'risidagi qator asarlarini e'lon qilishdi. Bu mavzuni O'rta Osiyo tarixchilaridan S.A.Rajabov, Z.SH.Rajabov, A.M.Aminov tadqiq etishgan[4].

K.Abaza o'zining 1902 yil nashrdan chiqqan "Завоевание Туркестана" asarida yozishicha, Qo'qonga qarshi qaratilgan dastlabki harakatlar 1864 yilda boshlangan. Bu vaqtda Qo'qon hukmdori sulton Saidxon va lashkarboshi Alimqul yurt barqarorligini ta'minlash uchun kurashayotgan edilar[5]. Imperiya qo'shinlari Qo'qonda dastlab kutgan natijalarga erisha olmadilar. Rus zobitlari 1864 yilda polkovnik Mixail Chernyayev boshchiligida Avliyoota shahri tomon yurish boshladilar. Avliyoota hokimi Niyozali dodhoh shaharni tashlab Turkistonga qochadi, ammo shahar xalq tomonidan mudofaa qilinadi. Xalq yengiladi hamda shahar talanib, Chernyayevga General mayor unvoni beriladi. Avliyoota va Turkiston egallangandan so'ng, Sulton Saidxon butun kuchini Toshkentning Mingo'rik mavzeida to'playdi. Butun xalq qo'llarini duoga ochib hammani g'azovot urushiga da'vat etadilar.

M.Terentyevning "История завоевания Средней Азии" asarida yozilishicha, 1865 yil 9 iyunda Sulton Saidxon Mirhamid Mirhalim o'g'li boshchiligida Buxoroga ketadi. 1865 yil 15 iyunda Kamolon darvozasiga Abramov, Delakroa va Jemchujnikov asosiy kuchlari bilan kelayotgan bo'lsa, Qo'qon darvozasi tomonga Krayevskiy qo'shinlari yaqinlashayotgan edi[6]. 1865 yil 15 iyunda erta tongda Kamolon darvozasiga hujum boshlandi. Abramov 3 joyda ularni yengib, Qorasoy darvozasi tomon yuradi.

Qo'qon darvozasi ochilib, Krayevskiy qo'shini shaharga kiradi. Ammo Shayh Abu Hakim boshchiligida Qo'qon darvozasida qattiq qarshilik ko'rsatiladi va dushman chekinishga majbur bo'ladi. Sulton Saidxon ketgandan so'ng Toshkent mudofaasi bilan Muhammad Solihbek dodhoh shug'ullanadi. Ular Toshkentga biror yerdan madad kelishiga umid qilib, shahami ushlab turadilar. Yunusxon Bobojon o'g'li 50 ta xat tayyorlab, uni Buxoro, Qo'qon va boshqa joylarga yubordi[7]. Ammo o'rda ichidagi maxfiy ombor joyi sotqinlar tomonidan ruslarga ko'rsatilib, o'rda portlatiladi. Qirq ikki kundan beri qamalda yotgan aholiga bu holat juda salbiy ta'sir etdi. D.Romanovskiy o'zining "Заметки по Средне-Азиатскому вопросу" nomli asarida yozishicha, Amir Muzaffar general-gubernatorga o'z elchilarini jo'natib, Toshkent aholisining ruslar qo'li ostiga o'tishidan qattiq noroziligini bildiradi. Yana bir boshqa elchi orqali amir ruslar ishg'oli masalasida Buxoro

bilan bir bitimga kelishini taklif etgandi[8]. Dunyo hamjamiyati oldida bu ishlarni oqlash maqsadida Hakimxo'ja qozikalon, Abulqosim eshon, Solihbek ohund bilan kelishishga harakat qilishadi. General Chernyayev bosh tashabuskor bo'lib "o'z ixtiyori" bilan Toshkent podsho hukumati tarkibiga o'tganligini rasmiylashtirdi. Bundan tashqari, 1868 yil 13 fevralda Qo'qon xonligi va general gubernator o'rtasida imzolangan shartnoma rus savdogarlari uchun keng imkoniyat yaratib, mahalliy savdogarlar huquqlari cheklab qo'yildi. N.Ostroumovning "Личные воспоминания Константин Петрович фон Кауфман – устроитель Туркестанского края (1867–1881)" nomli risolasida bu haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: "Mahram qal'asida 60 ming atrofida askar bo'lib, qal'a mustahkam devor bilan o'ralganiga qaramay, u bor yo'g'i 15 daqiqa bardosh berdi. Qochgan askarlar ayovsizlarcha otib tashlandi"[9].

Bu g'alabadan so'ng Kaufman xonlikni egallashga zarracha shubhasi qolmadi. 1875 yil 26 avgustda Kaufman Qo'qon tomon yuradi. Uni 29 avgustda Nasriddinxon non va tuz bilan kutib olib, xalqqa rahm - shafqat so'raydi. Kaufman Nasriddinxon bilan vaqtinchalik sulh tuzib, 8 sentabrda Marg'ilonga boradi. Bu vaqtda Abdurahmon Oftobachi Marg'ilonni ham tashlab qochadi. Shunday qilib 1873-1876 yillardagi hal qiluvchi janglardan so'ng, 1876 yil 16-fevral kuni rasman Qo'qon xonligi tugatildi va bu yerlarda Rossiya imperiya tarkibidagi Farg'ona viloyati tuzildi.

Uzoq yillar davomida Sovet tarixshunosligida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarining yoritilishi asosan kommunistik mafkuraning g'oyalari mos tarzda kechdi. Bunda ko'proq mustamlakaning "progressiv" ahamiyatiga e'tibor qararildi. XX asrning o'rtalariga kelib sobiq Ittifoq miqyosida mazkur ilmiy muammo yuzasidan o'tkazilgan ilmiy anjumanda istiloni "qo'shib olish" degan atama bilan nomlashga kelishilib, mahalliy xalqlar hayotida ijtimoiy va madaniy jihatdan "tub o'zgarishlar" amalga oshgani uqtirildi. Bu bilan tub millatlarning boy o'tmishi salbiy talqinga ega holda tasvirlash, ruslarning bu yerlarga kata o'zgarishlarni olib kirganligi haqidagi psevdotarix shakllandi va u o'tgan asrning 90-yillariga qadar bosh g'oya sifatida talqin etildi.

Harbiy harakatlarning asl maqsadlari e'tibordan chetda qoldi. Shunigdek, imperiya harbiylarining mustaqil Qo'qon, Buxoro, Xivaga yurishlari va ularning natijalari ham mafkuraga asoslangan holda tadqiq etildi. 1876 yilda Qo'qon xonligining tugatilishi arafasida u yerga kiritilgan harbiylarning harakatlari chuqur o'rganilmay va xonlikning inqiroziga aynan bu yerlik mahalliy amaldorlar aybdor sifatida ko'rsatildi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Понятовский С.В. Доходность хлопководства в Туркестане и Северной Америке. – Т., 1914. – С. 14.
2. Ляшенко П.И. История народного хозяйства СССР. – М., 1943, Т. 11. – С. 549-550
3. Туркестанские ведомости, 1891, 13 август, №33.
4. Раджабов С.А. Роль великого русского народа в исторических судьбах народов Средней Азии. - Т., 1955; Раджабов З.К. К вопросу об исторических корнях дружбы народов Средней Азии с великим русским народом. - Д., 1954; Аминов А.М Торговые отношения Средней Азии с Россией в XVI – XIX вв. - Т., 1952; Непомнин В.Я. К вопросу об исторических корнях дружбы узбекского и русского народов. (Нерушимая дружба. К 300-летию воссоединения Украины с Россией). - Т., 1954;
5. Абаза К.К. Завоевание Туркестана. - СПб., 1902. - С. 85.
6. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. - Т. III. - СПб.: Тип. Лит. В.В. Комарова, 1906. - С. 206.
7. Avaz Muhammad Attor. Tarixi jahonnamoyi // Sharq yulduzi. 1991. №8. - B. 127.
8. Романовский Д.И. Заметки по Средне-Азиатскому вопросу. - СПб., 1868. - С. 37-39.
9. Остроумов Н.П. Личные воспоминания Константин Петрович фон Кауфман – устроитель Туркестанского края (1867-1881). – Т., 1899. - С. 2II.